

JAVLON JOVLIYEVNING “QO‘RQMA” ROMANIDAGI AYRIM SHAKLDOSH SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Abduxalimov Sherzod Abduvali o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi.

E-mail: sherzodabduxalimov2000@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11394544>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi davr namoyondasi Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani tarkibida qo‘llanilgan shakldosh so‘zlarning matndagi xususiyatlari o‘rganiladi. Ularning asar mazmunida ifodalagan ma‘nolari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Qo‘rqma” romani, omonimiya hodisasi, omonim juftlik, lingvistik vosita.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НЕКОТОРЫХ ОФИЦИАЛЬНЫХ СЛОВ В РОМАНЕ ЖАВЛОНА ЖОВЛИЕВА "СТРАХ"

Аннотация. В данной статье изучаются особенности слов, использованных в тексте романа “Qo‘rqma” представителя новой эпохи Жавлона Джовлиева. Анализируются их значения в содержании произведения.

Ключевые слова: роман “Qo‘rqma”, феномен омонимии, омонимическая пара, языковой инструмент.

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF SOME FORMAL WORDS IN JAVLON JOVLIYEV'S NOVEL "FEAR"

Abstract. In this article, the features of the words used in the text of the novel “Qo‘rqma” by the representative of the new era, Javlon Jovliyev, are studied. Their meanings in the content of the work are analyzed.

Key words: the novel “Qo‘rqma”, phenomenon of homonymy, homonymous pair, linguistic tool.

Adabiyotimiz maydonida qalam tebratib kelayotgan ijodkor borki, yaratayotgan asarining jozibali, ta‘sirchan va sermano bo‘lishi uchun ona tilining bor imkoniyatlaridan foydalanishga, kitobxonlar e‘tiborini va e‘tirofini qozonishga harakat qiladi. Mana shunday imkoniyatlar dengizni o‘zida qamrab olgan eng go‘zal tillardan biri bu o‘zbek tilidir. Ildizlari turkiy tilga borib taqalguvchi bu til allaqachonlar o‘z e‘tirofiga sazovor bo‘lib ulgurgan. Necha asrlar muqaddam Alisher Navoiy tomonidan forsiy tilidan-da, turkiy tilning ulug‘ligi, imkoniyat darajasining kengligi isbotlangan va bugungi kungacha ham u o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jumladan, she‘riy va nasriy asarlarda so‘z o‘yinlarini qo‘llash, takroriylikni kamaytirish, qarama-qarshilikni ifodalash uchun tilshunosligimizning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlariga murojaat qilinadi. O‘zbek tilida shunday imkoniyatlardan biri omonimlar, ya‘ni shakldosh so‘zlar deb yuritiladi.

Omonimlar (“*omo*” va yunoncha “*oputa*” – *nom, ism*) – umumiy ma‘noga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so‘zlardir. Ular orasida semantik aloqa bo‘lmaydi. Ana shunday so‘zlarning tilda mavjud bo‘lishi va shunga bog‘liq hodisalar omonimiya deb ataladi. Omonimlarning lug‘aviy va grammatik ko‘rinishlari mavjud va ular bir-biridan farqlanadi. Xuddi shu ta‘rif kabi tilshunos olimlarimiz tomonidan ham ushbu hodisaga bir qancha fikrlar bildirilib, izohlanadi. Masalan, “Talaffuzi bir xil bo‘lgan so‘zlar omonimlar”

[1,110], yoki bo'lmasa, "Til birliklarining lug'aviy planida teng kelish hodisasi" kabi qator qarashlar bilan ma'lumotlar keltiriladi. [3,72] Ammo qarashlar turlicha bo'lsa-da mohiyat o'zgarmasdan, bitta paydo bo'lish ildiziga borib taqalaveradi.

Bugungi kitobxonlar javonidan asarlari joy olishga ulgurgan Javlon Jovliyev ham "Qo'rqma" romanida shakldosh so'zlariga murojaat qilganligini va asar ta'sirchanligini ta'minlash uchun ushbu ma'no turidan unumli foydalanganligini kuzatishimiz mumkin.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, har bir so'zning ma'nosi izohlanar ekan, avvalo uning matndagi o'rni va vazifasidan kelib chiqqan holda tahlilga tortish talab qilinadi. Zero, badiiy asarda shunday so'zlar uchraydiki, lug'atlarimiz yordamida uning ma'nosini ifoda qilish mushkul bo'lib, bevosita o'zi bilan birgalikda qo'llangan so'zlar va gaplar vositasida ma'nosi anglashiladi. Yozuvchi "Qo'rqma" asarida ham yuqoridagi kabi bir qancha so'zlardan foydalangan.

O'zbek tilining shakldoshlik imkoniyatidan nechog'lik ijodkor foydalanganligini va qaysi o'rinlarda shakldoshlikning eng yuqori namunalari o'z asarida qo'llay olganligini bir qancha misollar yordamida tahlil va talqin qilamiz:

Asr – ot so'z turkumida ifodalanib, quyosh botishidan bir soat oldingi namoz o'qiladigan payt hisoblanadi: *Asrga hali bor, bobo. Vaqtida o'qimasangiz, qabul bo'lmaydi.* ("Qo'rqma", 34)

Asr – ot so'z turkumida va yuz yil ma'nosini ifodalaydi: *Bir asr oldin boshlangan tergov hali ham tugamagan.* ("Qo'rqma", 20)

Bundan tashqari, asarda yana bir asr so'zi keltirilib, matn ichida yuqoridagi ikkita ma'nodan ham o'zgacha ifodada qo'llangan: *To'ngich amakimga bir asrlik talabalar bilan ketib borayotganim haqida aytsam, yana so'kinib qolsa kerak.* ("Qo'rqma", 152) Tahlil qilinib, ma'no jihatidan izohlanadigan bo'lsa, tengdosh yoki zamondosh talabalar ma'nosida yoxud, o'tgan asrga murojaat tarzida kontekstda qo'llanganligining guvohi bo'lamiz.

Balo – ot so'z turkumida ofat, falokat ma'nolarida qo'llanadi: *Otam ko'ksimga bir hovuch olov tashlab ketgan, u meni butun umr isitdi, balolardan saqlab keldi.* ("Qo'rqma", 349)

Omonim so'zlar lug'atida baloning ikkinchi ma'nosi o'z ishiga usta, uddaburon ma'nolarida ifodalanishi keltirilgan, ammo Javlon Jovliyev uni so'roq olmoshi bilan birgalikda qo'llab hayrat ma'nosini ham yuzaga keltiradi: *Nima balo, sizlar o'qishgamas, qizlar uchun keldinglarmi Berlinga?* ("Qo'rqma", 302)

Band – ot so'z turkumida hujjatning raqamlangan qismidir: *O'zSSR JKning 57-moddasi, birinchi bandi bilan Vatanga xiyonat, davlat sirlarini sotish.* ("Qo'rqma", 21)

Band – sifat so'z turkumida kelib, bo'sh emas manosida ishlatiladi: *Nimalardir o'ylayotgani uchun Oliy senatning bir joyini band qilgan.* ("Qo'rqma", 83)

Bo'y – ot so'z turkumida qomad ma'nosidadir: *Bo'yi kalta, semiz, lekin ko'zlari chiroyli ekan.* ("Qo'rqma", 91)

Bo'y – ot so'z turkumida kelib, hid deb izohlanadi: *Undan o'sha kokil xayollarini, dilgir shamollar bo'yini qidirish ahmoqlik.* ("Qo'rqma", 232)

Bo'sh – sifat so'z turkumida mo'rt, pishiq bo'lmagan yoki lapashang ma'nolarida keladi: *Palov hali pishmadimi? Boboy xo'p erkalatib, ipingizni bo'sh qo'ydi-da!* ("Qo'rqma", 79)

Bo'sh – sifat so'z turkumida xoli, ichida hech narsa yo'q ma'nosida hisoblanadi: *Ro'znoma talabalarining bo'sh vaqti bo'lishi bilan tayyorlangan va chop etilgan.* ("Qo'rqma", 182-b) Yoki bo'lmasa: *To'rt yil? Nima, seni kutaverib chiniqqan qornim bo'sh tursinmi?* ("Qo'rqma", 179)

Dam – ot so‘z turkumida nafas ma’nosida : *Uchiga chiqqan mutaassiblari nafasi o‘tkirroq domlaga dam soldirmasang, til tortmay o‘lasan, deya iddao qiladi.* (“Qo‘rqma”, 183)

Dam – ot so‘z turkumida orom ma’nosida: *Miya yaxshi dam olmaydi, natijada ish samaradorligim yo‘qoladi.* (“Qo‘rqma”, 186)

Dam – ravish so‘z turkumida on, payt, vaqt, kez ma’nolarida keladi: *Bir dam butun Samarqand sukutga cho‘mgandek bo‘ldi.* (“Qo‘rqma”, 12)

Et – ot so‘z turkumida go‘sht yoki badan ma’nosida: *Men uni taniy olmayman, suratdagi lo‘ppi yuz, basavlat odam o‘lgan-u, hozir qarshimda tirshayib osilib qolgan bir burda et turardi!* (“Qo‘rqma”, 54)

Et – fe‘l so‘z turkumida qilmoqni ifodalovchi fe‘lning buyruq shakli yoki yordamchi fe‘l vazifasida: *Hatto qachonlardir ota-bobolarimiz ozod va hur davlatda yashaganliklarini ham bir ertak singari eslaymiz, bolalar bugun-erta buni ham unutishga miyasini hozir etar.* (“Qo‘rqma”, 159)

Ich – fe‘l so‘z turkumida suyuqlikni yutish harakatini ifodalaydi: *Millatni yeymiz, qonini ichamiz, so‘ng hojatga shoshamiz, bolalarni ham, kelajakni ham axlat kabi to‘kamiz milliy hojatxonalarga!* (“Qo‘rqma”, 168)

Ich – ot so‘z turkumida ichki bo‘shliq ma’nosida: *Balki, ko‘pchilik kabi ichida kulish san‘atiga egadir.* (“Qo‘rqma”, 182)

Kech – fe‘l so‘z turkumida kelib, bahridan o‘tmoq ma’nosida keladi: *Sababi shuki, siz shu ondan boshlab “kasalman” degan fikrdan voz keching!* (“Qo‘rqma”, 21)

Kech – ravish so‘z turkumida vaqtida bo‘lmaslik ma’nosida: *Onam bechora bir kun bug‘doy o‘rimga kech borgan.* (“Qo‘rqma”, 235)

Kech – ravish so‘z turkumida payt ma’nosida: *“Ko‘ylaging o‘ralgan belingdan, akang!” – deya alamidan xotinini o‘sha kech qo‘ymay chiqishar, xayolda esa mehmon xonim bilan edi.* (“Qo‘rqma”, 47)

Kul – fe‘l so‘z turkumida xursandlik holatidagi ovoz ma’nosida: *Bu savoling ancha qiziq, jinni! – deya oyoqlaridan majoli qochib kulishardi behayo gapdan.* (“Qo‘rqma”, 56)

Kul – ot so‘z turkumida yonishdan hosil bo‘lgan chiqindi ma’nosida: *Xalq o‘z narxini unutdi. Xalq ulgurji bo‘ldi. O‘zini o‘ziniki kul qildi.* (“Qo‘rqma”, 42)

Shart – yordamchi so‘z vazifasida zarur, lozim kabi ma’nolarni anglatadi: *XX asrning ilk choragidagi tarixiy vaziyatlarni hurriyat tomon xizmat qildirmogimiz shartdur.* (“Qo‘rqma”, 309)

Shart – ot so‘z turkumida kelib, o‘zaro kelishuv ma’nosini anglatadi: *Seni hech qanday shartlarsiz shu qizaloq uchungina xotin qiladigan yoki bir kun tanangni pulga sotgani borganingda chindan sevib qoladigan mard er chiqishini orzu qil.* (“Qo‘rqma”, 94)

Sho‘r – sifat so‘z turkumida kelib, o‘tkir tuzli ma’nosini ifodalaydi: *Bitta. Sho‘r karam bilan bo‘lsa ikkita ham ag‘naydi.* (“Qo‘rqma”, 205)

Sho‘r – sifat so‘z turkumida tolei past, taqdiri go‘zal emas ma’nolarini ifodalaydi: *Nahotki, bir hafta, bir hafta, barcha ayb o‘zimda, peshonam shunchalar sho‘r-a, nimalar qilib qo‘ydim* (“Qo‘rqma”, 344)

Chop – fe‘l so‘z turkumida pichoq, bolta kabi narsalar yordamida amalga oshiriladigan harakat uchun foydalaniladi: *Siz tarixchisiz, rus bosqinini maqtab yozgan kitoblaringizni o‘zingiz yoqa olmadingiz, endi qo‘lingizni chopib tashlasangiz ham, baribir befoyda.* (“Qo‘rqma”, 97)

Chop – fe’l so‘z turkumida kelib, yugurish harakatini ifodalash uchun qo‘llaniladi: *Ortidan chopaman. Hoy, baraka topkurlar, to‘xtanglar!* (“Qo‘rqma”, 117)

Chop – fe’l so‘z turkumida nashr ettirmoq ma’nosida ifodalanib qo‘llanadi: “*Ko‘mak*” nomidan bir jurnal *chop qilayotganimizni bildirmoq niyatimiz bor.* (“Qo‘rqma”, 181)

“Qo‘rqma” romanida qo‘llangan shakldosh so‘zlar qatorini davom ettirsa, albatta yuqoridagilar to‘rtidan uchini ham tashkil qilmaydi. Tahlildan kuzatilgan maqsad, yozuvchi asarida qahramonlar xarakterini, voqealar rivojini, davrlar silsilasini ifodalashda omonimlarga qay darajada murojaat qilib, o‘zbek tilining imkoniyatlarini nechog‘lik ochib berganligini talqin qilishdan iboratdir.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ijodkor bir so‘zning kamida ikki yoki uch xil ma’nosini qo‘llagani va kitobxonni mushohadaga chorlaydigan o‘rinlarning ham ba’zi matn bo‘laklarida borligi ma’lum. Masalan, asr, bo‘y, bo‘sh, yo kabi qator so‘zlarning romanda ikki xil ma’noda ishlatilganligini kuzatsak, o‘t, uch, ot, dam kabi bir qator omonim so‘zlarning uch va undan ortiq ma’nolarini asar mazmuniga singdirib yuborganligining guvohi bo‘lamiz.

REFERENCES

1. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 110 б.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент, 1980. – Б. 7.
3. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 72 б.
4. Ўзбек тили лексикологияси. Коллектив тўплам. Т: Фан, 1981.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2020.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
7. D.Islamova. Linguistic representation and methods of its expression in artistic text. International Bulletin of Engineering and Technology (IBET). Volume: 3, Issue: 7. – Amerika, 2023. – P. 137-141.
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=t18kgDYAAAAJ&citation_for_view=t18kgDYAAAAJ:ULOm3_A8WrAC